

Abdurasulov Xolmuhammad Muhammadqodir o‘g‘li

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi

Milliy markazi tayanch doktoranti

e-mail: abdurasulovandu@mail.ru

[+998936999877](tel:+998936999877)

INSON HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inson huquqlariga oid yalpi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari, xalqaro hujjatlar va qonunchilik asoslari, shaxs huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda davlat organlari va tashkilotlarining ishitoki kabi masalalar umumiy tahlil qilingan.

Har bir davlat o‘z hududida inson huquqlarining ta’milnoshini o‘z siyosiy va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga binoan ishtirokchi davlat o‘z hududida yashovchi har bir insonning shaxsiy huquqlarining amalga oshishini kafolatlashga majburdir. Shuningdek, fuqarolarning siyosiy huquqlari amalga oshishini ham kafolatlash majburiyatini oladi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga muvofiq, har bir shaxs iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarining amalga oshishi uchun o‘z majburiyatlarini ham his qilishi kerak. Davlat esa insonning erkin harakatlanishi uchun o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda yetarli darajada sharoit yaratishi lozim.

Ikki muhim hujjat: 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik deklaratsiyasi” hamda 1991-yil 31-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari haqida”gi konstitutsiyaviy qonun o‘scha davrdagi parlament – Oliy Kengash tomonidan qabul qilinishi bilan buyuk ajdodlarimiz, xalqimiz orzu qilgan erk yo‘lidagi asriy maqsadlariga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentyabrda o‘z davlat mustaqilligini e’lon qilgach, qat’iy huquqiy me’zonlarga tayanadigan, faol fuqarolik jamiyatiga asoslangan, xalq hokimiyatini ifoda etuvchi demokratik davlat barpo etish yo‘lidan bordi. Ushbu ulug‘ maqsad pirovardida ming yilliklar davomida shakllangan buyuk o‘zbek etnosining milliy qadriyat va an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan, demokratiyaning asosiy prinsiplari ustuvor yo‘nalish qilib belgilangan, shaxs, jamiyat va davlatning uyg‘unlashgan mohiyatini aks ettiruvchi rivojlanishning sharqona-o‘zbek modelini yaratish asosiy g‘oya qilib belgilandi.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish – davlatning inson huquqlari sohasidagi birlamchi vazifasidir. O‘zbekiston hukumati xalqaro tashkilotlar ishtirokisiz va inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilmasdan turib demokratik huquqiy davlat qura olmasligini yaxshi tushundi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston qo‘shilgan dastlabki xalqaro hujjat bu – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo‘ldi. Yosh davlat o‘zining yangi rivojlanish yo‘lida deklaratsiyadagi inson huquqlariga oid umume’tirof etilgan qoidalarni bajarishga tayyorligini, inson va shaxs erkinligiga bag‘ishlangan standartlarga sodiqligini keng xalqaro maydonda namoyon etdi. Bugungi kungacha mamlakatimiz inson huquqlariga oid BMTning asosiy 11 ta shartnomasidan 9 tasini ratifikatsiya qilib, inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro

hujjatlarga qo'shilgan hamda tegishli konvensiyaviy organlarga o'zining davriy milliy ma'ruzalarini muntazam ravishda taqdim etish orqali inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini izchillik bilan bajarib kelmoqda.

Shular ichida BMTning 7 ta asosiy xalqaro shartnomasi ham bor. Bular:

1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (Oliy Majlisning 1995-yil 31-avgustdag'i 127-I-sonli qarori);
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (Oliy Majlisning 1995-yil 31-avgustdag'i 126-I-sonli qarori);
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli qarori);
4. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (Oliy Majlisning 1995-yil 6-maydag'i 87-I-sonli qarori);
5. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (Oliy Majlisning 1995-yil 31-avgustdag'i 129-I-sonli qarori);
6. Qiynoqlarga hamda shafqatsiz, insoniylikka zid yoki kamsituvchi muomalaga qarshi konvensiya (Oliy Majlisning 1995-yil 31-avgustdag'i 130-I-sonli qarori).
7. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2021-yil 7-iyundagi O'RQ-695-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni).

1996-yildan buyon bugungi kunga qadar O'zbekiston tomoni ushbu shartnomalarda belgilangan majburiyatlariga ijrosi yuzasidan 51 marta o'zining milliy davriy ma'ruzalarini BMTning tegishli konvensiyaviy qo'mitalariga taqdim etgan.

Mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha davlat siyosatining bir qator ustuvor yo'nalishlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillari:

- umume'tirof etilgan demokratiya va inson huquqlari tamoyillariga sodiqlik,
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda inson huquqlari sohasidagi tashqi siyosiy faoliyatni rivojlantirish,
- demokratik islohotlarni amalga oshirishda izchillik va bosqichma-bosqichlik yo'lidan borish,
- demokratlashtirish va inson huquqlarini himoya qilish jarayoni dinamik xususiyat kasb etishida namoyon bo'ladi.

Shu tamoyillardan kelib chiqib, O'zbekiston jamiyatning barcha jabhalarida va ijtimoiy hayotida inson huquqlari sohasidagi keng qamrovli xalqaro me'yirlarni tatbiq etishga kirishdi. Mamlakatimiz milliy qonunchiligi inson huquqlariga oid 600 dan ortiq qonun qabul qilinishi bilan mukammal qonunchilik mexanizmi yaratildi. Yaqin tarix dekadasi davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orasida alohida e'tirof etiladigan hamda inson huquqlariga oid milliy tafakkurni o'zida aks ettirgan qonunlar, xususan: O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida(2024); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida (2017), Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (2007), Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (2021), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida (2017), Ichki ishlar organlari to'g'risida (2016) Qonunlar hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (2020), O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari

sohasidagi milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida (2023) kabi Prezident hujjatlari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qiluvchi mustahkam milliy mexanizmlar yaratilgan bo‘lib, ular orasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sud, prokuratura, ichki ishlar, advokatura) hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda inson huquqlariga oid qonunchilikning asosiy negizlari yaratilishi bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilishni ta’minlovchi institutsional mexanizmlarni shakllantirish bo‘yicha ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, quyidagi asosiy beshta demokratik institutni keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman);

Bola huquqlari bo‘yicha vakil (Bolalar ombudsmani);

Tadbirkorlar subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes ombudsman);

O‘zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi;

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekiston inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini bajarishda izchil harakatlarni amalga oshirib, qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari va sud-huquq tizimini isloq qilish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keluvchi islohotlarni amalga oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Davlat organlarining inson huquqlarini amalga oshirishdagi asosiy vazifasi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minalash, adolatli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashdan iborat. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ommaviy axborot vositalarining erkin ishlashi va inson huquqlari bo‘yicha davlat organlari faoliyatining oshkoraliqi ushbu jarayonning muhim qismidir.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, qonuniylikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni rivojlantirish orqali O‘zbekiston demokratik va huquqiy davlat sifatida yanada taraqqiy etmoqda.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan.
2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. Mo‘minov A.R., Tillabaev M.A. Inson huquqlari. –T.: Adolat, 2013.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

5. Saidov A. X. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi.– T. 2010-yil.
6. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2002.
7. G‘afurov A.B. Mo‘minov A.R. Inson huquqlari. – T.: Baktria Press, 2012.
8. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi. –T.: 2020.
9. www.lex.uz qonunchilik portal.
10. www.insonhuquqlari.uz sayti.